



Научно-образовательный электронный журнал

ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ

**Выпуск №26 (том 6)
(май, 2022)**



Международный научно-образовательный
электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ»

УДК 37

ББК 94

**Международный научно-образовательный электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». Выпуск №26 (том 6) (май, 2022).**

Дата выхода в свет: 31.05.2022.

Сборник содержит научные статьи отечественных и зарубежных авторов по экономическим, техническим, философским, юридическим и другим наукам.

Миссия научно-образовательного электронного журнала «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ» состоит в поддержке интереса читателей к оригинальным исследованиям и инновационным подходам в различных тематических направлениях, которые способствуют распространению лучшей отечественной и зарубежной практики в интернет пространстве.

Целевая аудитория журнала охватывает работников сферы образования (воспитателей, педагогов, учителей, руководителей кружков) и школьников, интересующихся вопросами, освещаемыми в журнале.

Материалы публикуются в авторской редакции. За соблюдение законов об интеллектуальной собственности и за содержание статей ответственность несут авторы статей. Мнение редакции может не совпадать с мнением авторов статей. При использовании и заимствовании материалов ссылка на издание обязательна.

© ООО «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА»

© Коллектив авторов

«FAZODA DEKART KOORDINATALAR SISTEMASI MAVZUSINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLAR» Rashidov Anvarjon Sharipovich, Shuxratova Durдона Furqat qizi	444
«MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANIB KOMPLEKS SON DAN KVADRAT ILDIZ CHIQRISH MAVZUSINI O'QITISH» Rashidov Anvarjon Sharipovich, Shukurullayeva Mohinur Fazliddin qizi	456
«SODDA IRRATSIONAL TENGSIZLIKLARNI YECHISH USULLARI» Rashidov Anvarjon Sharipovich, Hikmatova Maftuna Hoshim qizi	468
«SILINDRNING HAJMI MAVZUSINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLAR» Rashidov Anvarjon Sharipovich, Xoliqova Xolniso Xolis qizi	481
«KO'PYOQLAR VA ULARNING SODDA KESIMLARINI YASASH MAVZUSINI INTERFAOL METODLAR YORDAMIDA O'QITISH» Rashidov Anvarjon Sharipovich, Nurilloeva Hilola Ismat qizi	494
«FeBO ₃ va FeBO ₃ :Mg МАГНИТ СТРУКТУРАСИНИ ЎРГАНИШИ» Файзиев Шахобиддин Шавкатович	508
«O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING TIZIMLI BOSQICHLARINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYALARI» Rasulova Zilola Durdimurotovna	517
«O'QUV JARAYONLARINI DIDAKTIK QONUNIYATLAR ASOSIDA TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI» Rasulova Zilola Durdimurotovna	526
«O'RTA QIYMAT, MODA, MEDIANA» Jo'rayeva Nargiza Oltinboyevna, Egamova Mahliyo	535
«KO'PHADNI KO'PAYTUVCHILARGA AJRATISHNING BIR NECHA USULINI QO'LLASH MAVZUSINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI» Jo'rayeva Nargiza Oltinboyevna, Rafqatova Sitara Umid qizi	548
«MASALALARNI TENGLAMALAR YORDAMIDA YECHISH METODIKASI» Jo'rayeva Nargiza Oltinboyevna, Baxshulloyeva Dinara	561
«NATURAL KO'RSATKICHLI DARAJANING ARIFMETIK ILDIZI VA UNING XOSSALARI» Jo'rayeva Nargiza Oltinboyevna, Boboqulova Nigora	572
«SONLI KETMA-KETLIK LAR MAVZUSINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI» Jo'rayeva Nargiza Oltinboyevna, Boymurodova Sharofat	584
«LOGARIFM VA UNING ASOSIY XOSSALARI» Jo'rayeva Nargiza Oltinboyevna, Jumayeva Maqsad A'zambek qizi	596

ФИО автора: *Rasulova Zilola Durdimurotovna*

Buxoro davlat universiteti

Texnologik ta'lim kafedrası dotsenti

Название публикации: «O'QUVCHILARNI KASBGA
YO'NALTIRISHNING TIZIMLI BOSQICHLARINI AMALGA OSHIRISH
TEKNOLOGIYALARI»

ANNOTATSIYA

Maqolada kasbga yo'naltirish o'quvchilarga politexnik ma'lumot berish masalalari bilan, kasb tanlash esa muayyan bilim darajasi bilan chambarchas bog'liqligi aks ettirilgan. O'quvchilarda kasbga yo'naltirishga oid bilimlar mazmunining yagona tizimini hamda kasbga yo'naltirish metodologiyasini ishlab chiqish kasbga yo'naltirish sohasida muvaffaqiyatli ish olib borishning muhim shartlari tushuntirilgan.

Kalit so'zlar: kasbga yo'naltirish, politexnik ma'lumot, zamonaviy ta'lim, kasbiy moyillik, ma'naviy-axloqiy fazilatlar, tibbiy nomuvofiqliklar, kasbga yaroqlilik.

Kirish.

Tabiat va jamiyat hodisalari, ishlab chiqarish jarayonlari ko'pincha shu qadar murakkabki, ularni bir ilm-fan doirasida tavsiflash mumkin emas. Oliy ta'limda o'rganilayotgan ko'pgina fakt va qonunlar o'zaro bog'liq holda aniq ro'yobga chiqarilgan taqdirdagina o'zlashtirishi mumkin. Misol uchun kasbga yo'naltirish masalasini olib ko'raylik. Muammoning muhimligi, yoshlarni kasbga yo'naltirishga oid bir qancha amaliy masalalarni shoshilinch ravishda hal qilishning zarurligi hozirgi vaqtda ko'plab mutaxassislar: pedagoglar, psixologlar, vrachlar, iqtisodchilar, sotsiologlar va g'oyat xilma-xil sohalarida ishlovchi amaliyotchi xodimlarning e'tiborini o'ziga jalb etdi. Bu borada ko'plab mutaxassislarning ishtirok etishi va ish olib borishi muammoni to'g'ri va kompleks tarzda hal etish uchun zamin va sharoitlar yaratib beradi, albatta.

Shu bilan birga bu mutaxassislarning har biri to'la aniq ma'lumot olgan, muayyan ish tajribasiga ega xodimlardir. Shu boisdan ular kasbga yo'naltirish sohasidagi o'z faoliyatida o'zlariga ma'lum bo'lgan metodlarga, muammoga yondashuv usullariga hamda idrok qilish uslubi va shu kabilarga tayanadilar. Bu esa ba'zan ularda tushunchalarning ayrim atamalaridan foydalanishda ziddiyatlar tug'diribgina qolmay, kasbga yo'naltirish maqsad va vazifalarining qo'yilishida bir qancha amaliy masalalarini tushunib olishda bu borada yakdillikning buzilishiga ham olib kelmoqda. Shu sababdan ham kasbga yo'naltirishga oid bilimlar mazmunining yagona tizimini hamda kasbga yo'naltirish metodologiyasini ishlab chiqish kasbga yo'naltirish sohasida bundan buyon muvaffaqiyatli ish olib borishning muhim shartidir.

Asosiy qism.

Kasbga yo'naltirish ishida iqtisodiy muammolar muhim o'rin tutadi. Bular orasida xalq xo'jaligini rivojlantirish va kad muammolari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu masalalarni kasbga yo'naltirish jihatlari bilan o'zaro bog'liq tarzda talabalarning mustaqil mashg'ulotlarida ko'rib chiqishi tavsiya etiladi. Hozirgi fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyot sharoitida yosh avlodni jamiyat barpo etishda faol qatnashishga tayyorlashi lozim bo'lgan maktabning roli har qachongidan ko'ra o'sdi.

Shu munosabat bilan o'quvchilarga ilm-fan asoslarining mustahkam bilimlarini singdirish, ularda yuksak onglilikni tarbiyalash, umuminsoniy axloqiylikni shakllantirish, yosh avlodni turmushga va mehnatga, ijtimoiy zarur kasblarni ongli ravishda tanlashga tayyorlash ta'lim va tarbiyaning hamma bosqichlarida hozirgi zamonaviy ta'limning vazifalaridir.

Kasbni to'g'ri tanlash – inson turmushida muhim qadamdir, yosh avlodning butun hayotidagi muvaffaqiyat ko'p jihatdan kasbning qanchalik to'g'ri tanlanishiga bog'liq. O'quvchilarning kasb tanlashi ongli zaruriyat bo'lishi va ayni vaqtda jamiyat manfaatlariga mos bo'lib tushishi, yigit va qizlarning kamolot yo'lida shaxsiy muddaolarini qondirishi lozim. Buning uchun yuksak darajada

ma'lumotli bo'lish zarur, hozirgi asrimizda bunday ma'lumotsiz fan-texnika ildam taraqqiy etishi mumkin emas. Umummehnat va maxsus malakalarni, kasbga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishning bunday imkoniyatlari ob'yektiv zaminga ega bo'lib, voqe'likda har kuni amalda oshirilmoqda.

Kasbga yo'naltirish o'quvchilarga politexnik ma'lumot berish masalalari bilan, kasb tanlash esa muayyan bilim darajasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Yosh avlodga mehnatga ijodiy munosabatda bo'lishni tarbiyalash muhimdir. Ijodkorlik inson faoliyatiga umuman xos narsadir, qobiliyatlarini har tomonlama kamol toptirish uchun imkoniyat mavjud bo'ladi, chunki bolalar yoshligidanoq mehnatga qiziqib qoladilar: ular o'z o'yinlarida ota-onalariga, atrof-tevarakdagi kishilarga taqlid qiladilar, ularning mehnat harakatlarini takrorlaydilar. Faoliyatga ana shunda intilish, kattalarning mehnatiga taqlid qilish bolalarga maktabgacha yoshdayoq hammabop mehnat malakalarini singdirish uchun qulay omil bo'lib xizmat qiladi. Kasb-hunarga yo'llash bo'yicha olib boriladigan ishlarning barcha shakl va metodlari o'quvchilarning maqsadli ravishda kasb tanlashlariga xizmat qilishi lozimdir.

Maktabda kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini yo'lga qo'yishda an'anaviy amaliy mashg'ulot, suhbat, dialogli munozaralar bilan birga pedagogik o'yin, konferensiya, mustaqil fikrlar, mahalla, ishlab chiqarish korxonalarining jamoalari bilan birgalikda o'tkaziladigan tadbirlar kabi yangi pedagogik texnologiya elementlaridan unumli foydalanish tavsiya etiladi. Umumiy o'rta ta'lim davlat standartlariga asosan maktabda kasbga yo'naltirish bo'yicha mashg'ulotlar 8-9 sinflarda amalga oshiriladi. 8-sinfda kasblar haqida "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar tasniflagichi" asosida axborot berish davom ettirilishi bilan bir qatorda o'quvchilarga kasb egallash yo'llari, kasb tanlashda tibbiy nomuvofiqliklar, kasbga yaroqlilik va hokazolar tushunchalari berib beriladi.

Maktabda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish birgina mehnat ta'limi o'qituvchisining ishi emas, balki butun maktab jamoasining, mahalla, ota-onalar, jamoatchilikning birgalikdagi ishidir.

Texnologiya fani darslari kasbga yo‘naltirish ishini olib borish uchun alohida imkoniyatlarga ega. Buni texnologiya darslari kasbga yo‘naltirishga qaratilgan yo‘lining tahlil misolida ham ko‘rish mumkin. I-IV sinflarda texnologiya fanining asosiy maqsadlaridan biri-o‘quvchilarda inson uchun mehnat birinchi zaruriyat, ijtimoiy burch ekanligiga, har qanday kasbni egallash uchun mustahkam va chuqur bilimlar kerakligiga ishonch hosil qilishdan iborat. Mehnatga muhabbatni va ishlash istagini faqat mehnatda tarbiyalash mumkin. Shu boisdan ham texnologiya fani darslarida qariyb 80 foiz vaqt amaliy ishlar uchun ajratilgan. O‘quvchilar qurilish konstruktori bilan ishlab, qurilish kasblari, ularning muhimligi va zarurligi to‘g‘risida, qurilish bilan bog‘liq bo‘lgan odamlar mehnatining mazmuni haqida ma‘lumotlar oladilar, qurilish ob‘yektlarini modellashtirishni o‘rganadilar. Bu ishlar bolalarda texnik tafakkurni, makonga oid tasavvurlarni, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi, ularda quruvchi mehnatiga hurmat bilan qarash hissini tarbiyalaydi.

Texnik konstruktor bilan ishlash chog‘ida bajariladigan topshiriqlar o‘quvchilarni mashinasozlik elektrotexnika asoslari bilan tanishtiradi, ularda texnik tafakkurni rivojlantiradi, unchalik murakkab bo‘lmagan texnik qurilmalarni bilib olish imkonini beradi. Bolalar mashinasozlikka oid keng tarqalgan va zarur kasblar, ana shu kasblarning mehnat mazmuni bilan tanishtiradilar. O‘quvchilarning shaxsini o‘rganish ularni tarbiyalash bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘qituvchi o‘quvchining alohida xususiyatlarini payqab, unda mavjud iste‘dod nishonlarini rivojlantirish metodlarini topa olishi, uning xulq-atvoridagi salbiy jihatlarini bartaraf etishi mumkin va h.k. Ba‘zi bolalarda kasbga moyillik yaxshi namoyon bo‘ladi, ko‘pchilik bolalarda bu narsa birdaniga aniqlanmaydi.

Kasbiy-pedagogik bilimdonlik asosan to‘rtta komponenti bilan tavsiflanadi:

- Shaxsga, insonga yo‘nalganlik;
- Pedagogik voqe‘likni izchil idrok etishi;
- Fan sohasiga yo‘nalganlik;
- Pedagogik texnologiyalarni egallash.

O'qituvchining boladagi iste'dod nishonalarini aniqlashi, bularni qobiliyatini rivojlantirish va shakllantirishda ko'maklashimni muhimdir. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kasbga yo'naltirish ishi - o'quv jarayonining uzviy tarkibiy qismidir. Quyi sinflardan boshlanadigan bu ish jamiyat uchun zarur, har bir kishining xususiyatlariga mos kasblarga barqaror qiziqishni tarbiyalashga yordam beradi. Mehnatga qiziqishning mavjudligi va mehnat qilishga shaylik-shaxs yetukligining eng muhim ko'rsatkichlaridan biridir.

Kasbiy-pedagogik bilimdonlik pedagogik voqelikni izchil idrok eta bilish va unda izchil harakat qila olish malakasini qamrab oladi [1-40]. Bu xislat pedagogik jarayon mantig'ining yaxlitligiga va butun tuzilmasi bilan birgalikda ko'ra olish, pedagogik tizimning rivojlanish qonunityalari va yo'nalishlarini tushunish imkoniyatini ta'minlaydi, maqsadga muvofiq faoliyatini konstruksiyalashni osonlashtiradi.

Kasbga yo'naltirish ishini amalga oshirishning umumiy tizimida maktab tizimi dastlabki bosqich hisoblanadi. Kasbga yo'naltirish ishi maktab tizimining vazifalari:

- shaxsning yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan fuqarolarni tarbiyalashdan;
- politexnik va boshlang'ich kasbiy malakalarning muayyan tizimini egallagan bo'lg'usi malakali mutaxassisni tayyorlashdan;
- ham shaxsiy mehnat, ham jamoa mehnati muayyan tashkilotchilik malakalarini shakllantirishdan iborat.

Xulosa.

Kasbiy- pedagogik bilimdonlik pedagogik voqelikni izchil idrok eta bilish va unda izchil harakat qila olish malakasini qamrab oladi. Bu xislat pedagogik jarayon mantig'ining yaxlitligiga va butun tuzilmasi bilan birgalikda ko'ra olish, pedagogik tizimning rivojlanish qonunityalari va yo'nalishlarini tushunish imkoniyatini ta'minlaydi, maqsadga muvofiq faoliyatini konstruksiyalashni osonlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Olimov Sh.Sh. The innovation process is a priority in the development of pedagogical sciences. *European Journal of Research Development and Sustainability*. 2:3 (2021), pp. 86-88.
2. Rasulova Z.D. Pedagogical peculiarities of developing socio-perceptive competence in learners. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*. 8:1 (2020), pp. 30-34.
3. Расулова З.Д. Дидактические основы развития у будущих учителей креативного мышления. *European science*, vol. 51, no. 2-2 (2020), pp. 65-68.
4. Olimov S.S., Mamurova D.I. Graphic Information Processing Technology and its Importance. *European Journal of Life Safety and Stability*. 10 (2021), pp. 1-4.
5. Расулова З.Д. Значения обучающих технологий направленной личности на уроках трудового обучения. *Ученые XXI века*, 47:12 (2018), С. 34-35.
6. Rasulova Z.D. Conditions and opportunities of organizing independent creative works of students of the direction Technology in Higher Education. *International Journal of Scientific and Technology Research*. 9:3 (2020), pp. 2552-2155.
7. Olimov Sh.Sh. The differentiation of education is an important factor of pedagogical technology. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*. 8:11 (2020), pp. 161-165.
8. Кулиева Ш.Х., Расулова З.Д. Формирование профессионально-педагогической компетентности будущих специалистов на основе информационных технологий. *Молодой учёный*, 112:8 (2016), С. 977-978.
9. Кулиева Ш.Х., Расулова З.Д. Инновационная деятельность педагога в образовании. *Молодой учёный*, 112:8 (2016), С. 978-979.
10. Olimov S., et. al. The innovation process is a priority in the development of pedagogical sciences. *European Journal of Research Development and Sustainability*. 2:3 (2020), pp. 86-88.

11. Аноркулова Г.М., Кулиева Ш.Х., Расулова З.Д. Методологические основы системного подхода при подготовке учителей профессионального обучения. Молодой учёный, 93:13 (2015), С. 588-590.
12. Аноркулова Г.М., Кулиева Ш.Х., Расулова З.Д. Модель подготовки учителей профессионального образования на основе системного подхода. Молодой учёный, 93:13 (2015), С. 590-592.
13. Олимов Ш.Ш., Ходжиева М.Ш. Возможности применения педагогических технологий в образовательном процессе. Молодежь и XXI век-2020, 2020, С. 228-231.
14. Кулиева Ш.Х., Хамроева Х.Ю., Расулова З.Д. Учебный процесс как педагогическая система в процессе подготовки учителей профессионального обучения. Молодой учёный, 56:9 (2013), С. 383-385.
15. Каххоров С.К., Расулова З.Д. Роль дистанционного обучения а развитии творческих навыков студентов. Проблемы педагогики. 49:4 (2020), С. 26-29.
16. Bakaev J.N., Olimov Sh.Sh. Modern approaches to diagnosis, etiology and pathogenesis of the upper permanent canine retention formation (Literature Review). European Journal of Molecular & Clinical Medicine. 7:3 (2020), pp. 3815-3830.
17. Каххоров С.К., Расулова З.Д. Компьютерные технологии обучения как важный фактор для улучшения процесса преподавания. Современные инновации. 36:2 (2020), С. 44-46.
18. Kakhkhorov S.K., Rasulova Z.D. Methodology of improving the professional activity of the future teacher of technology on the basis of modern educational technologies. Universal J. of Educational Research. 8:12 (2020), pp. 7006-7014.
9. Olimov S.S., K.K.Khomidov. Preparing Future Teachers To Solve The Tasks Of Patriotic Education Of Children And Youth. The American Journal of Social Science and Education Innovations. 2:12 (2020), pp. 132-136.
20. Расулова З.Д., Содикова А.Х. Возможности использования компьютерных технологий в технологическом образовании. Вестник науки и образования. 97:19 (2020), часть 2, С. 68-71.

21. Расулова З.Д. Эффективность дистанционной организации процессов обучения в высшем образовании. *Academy*. 62:11 (2020), С. 31-34.
22. Khaitova I.I., Olimov S.S. The Main Problems Of Studying Electronic Information And Educational Environment Of The High School: Experience Of Analysis Of Scientific Literature. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*. 2:12 (2020), pp. 127-131.
23. Каримова М.Н., Расулова З.Д. Использование учебных инструментов в развитии творческого мышления учащихся. *Проблемы педагогики*, 50:5 (2020), С. 19-22.
24. Расулова З.Д. Наука и образование в период пандемии. *Наука, техника и образование*. 75:11 (2020), С. 101-104.
25. Олимов Ш.Ш., Сайфуллаева Н.З. Возможности использования «метода проектов» в процессе обучения. *Молодежь и системная модернизация страны*. 2020, С. 276-278.
26. Rasulov T.H., Rasulova Z.D. Organizing educational activities based on interactive methods on mathematics subject. *Journal of Global Research in Mathematical Archives*, 6:10 (2019), pp. 43-45.
27. Расулова З.Д. Технологии развития творческих способностей будущего учителя. *Наука, техника и образование*. 77:2-1 (2021), С. 34-37.
28. Олимов Ш.Ш., Сайфуллаева Н.З. Педагогико-экономические аспекты интеграции образования, науки и производства в условиях региональных вузов на современном этапе. *Сибирский педагогический журнал*. 3 (2019), С. 71-82.
29. Расулова З.Д. Роль электронного учебно-методического комплекса в оптимизации учебных процессов. *Academy*. 66:3 (2021), С. 27-30.
30. Расулова З.Д. Технологии развития творческих качеств студентов. *Наука и образования сегодня*. 60:1 (2021), С. 34-37.
31. Расулова З.Д. Программные инструменты - важный фактор развития творчества учащихся. *Вестник науки и образования*. 99:21 (2020), часть 2, С. 37-40.

32. Sharofovich O.S., Zakiraliyeva S.N. Parametric Modeling of Assessing The Development Level of Economical Thinking of Students. *International journal of recent technology and engineering*. 8:3 (2019), pp. 238-242.
33. Расулова З.Д. Замонавий ахборот-коммуникация технологиялари ўқув жараёндарини ривожлантиришнинг муҳим омили сифатида. *Science and Education*. 2:10 (2021), 349-359 бетлар.
34. Расулова З.Д. Компьютер воситасида технология дарслари самарадорлигини ошириш. *Science and Education*. 2:10 (2021), 387-397 бетлар.
35. Олимов Ш.Ш. Педагогическое мастерство преподавателя и его профессионализм в системе образования. Научные школы Молодежь в науке и культуре XXI в. Материалы международного научно-творческого форума. Челябинск. 31 (2017), С. 320-322.
36. Rasulova Z.D. Texnologiya darslarini tashkil etishning didaktik tamoyillari. *Science and Education*. 2:10 (2021), 427-438 betlar.
37. Rasulova Z.D. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. *Science and Education*. 2:10 (2021), 338-348 betlar.
38. Олимов Ш.Ш., Сайфуллаева Н.З. Основные принципы развития духовно-нравственного мировоззрения у студентов. “Инновационная экономика: перспективы развития и совершенствования”. Научно-практический журнал. 5:10 (2017), С. 45-51.
39. Расулова З.Д. Бўлажак технология фани ўқитувчисининг билим, кўникмасини ривожлантиришда дастурий таълим воситаларининг ўрни. *Science and Education*. 2:10 (2021), 370-379 бетлар.
40. Расулова З.Д. Инновацион педагогик технологиялар асосида олий таълим муассасаси ўқув жараёндарини такомиллаштириш мазмуни. *Science and Education*. 2:10 (2021), 460-469 бетлар.